

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.Sh.Nomozov	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
U.R.Sobirova	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	332
A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari	335
I.Rizayev	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
R Mardonov	
Sharq va g'arb ta'lif falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot	346
N.X.XakimovB.A.Nabiiev	
O'rta osiyoda hozirgi ekloviy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
X.Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil)	358
H.Muhamadiyev	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida	365
D.B.Sharipov	
Tinchlikni ta'minlashning innovation omillari	370
X.R.Xolidaxon	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

SIYOSAT

A.Z.Ismayilov	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari	378
J.Sultonov	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish	384

TARIX

B.Usmonov, D.A.Madalimov	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida	392
M.Sh.Muzaffarjon	
O'zbekistonda turizmnning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari)	397
B.M.Abdullayev	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli	405
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
D.M.Turdiyeva	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
A.A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir	425
A.A.Yo'ldashev	
XX asrning 20-yillarda ozarbayjonda ta'lif olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	436
P.P.Norbo'tayev	
Epos va din	440
Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili	446
J.Sh.Museyibzada	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
M.R.Umirzakova	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

O'ZBEKİSTONDA TURİZMNING VUJUDGA KELISHI TARIXI (XX asrning 20-30-yillari)**ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (20-30-е годы XX века)****HISTORY OF THE EMERGENCE OF TOURISM IN UZBEKISTAN (20-30s of XX century)****Muzaffarjon Mansurov Sharifjon o'g'li¹****¹Muzaffarjon Mansurov Sharifjon o'g'li**

– A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Tadqiqot maqsadi Sovet Ittifoqi yillarda O'zbekistonda madaniy turizmning turizm industriyasidagi o'mi va ahamiyatini ochib berishdan iborat. Davriy chegarasi 1924-1991-yillarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot ishi qiyosiy-tadrijiy, davriylik metodlari asosida xorij manbalari hamda Sovet Ittifoqi yillarda nashr etilgan gazeta va jurnallar asosida tahlil qilingan. V.A.Kvartalnogo, G.A. Papiriana, B.C. Malsheva, R.Yu. Popovoy, O.P. Berezkinoy, N.V. Mixaylovoy, I.I.Ilinoy kabi olimlarning analiz metodlaridan samarali foydalanilgan. O'zbekistonda turizmni paydo bo'lishi bevosita Sovet Ittifoqining XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi hamda ishchi va mehnatkashlarni dam olishini tashkillash va kommunistik mafkura targ'ibot quroli vazifasini bajardi. Biroq bu davrda turizm infratuzilmasining yo'qligi tufayli Sovet Ittifoqi tashqi turistlar oqimi uchun sun'iy to'siq qo'yishga majbur bo'ldi.

Аннотация

Цель исследования - выявить роль и значение культурного туризма в туристической индустрии Узбекистана в годы существования Советского Союза. Период включает 1924-1991 годы. Исследовательская работа анализировалась на основе сравнительно-поэтапного, периодического методов с опорой на зарубежные источники и газеты и журналы, издававшиеся в годы существования Советского Союза. Были использованы методы анализа таких ученых, В.А.Квартального, Г.А. Папириана, Британская Колумбия Малышева, Р.Ю. Поповой, О.П. Березкиной, Н.В. Михайловой, И.И. Илиной. Возникновение туризма в Узбекистане приходится непосредственно на 20 годы 20 века в Советском Союзе, что послужило инструментом организации отдыха рабочих и коммунистической идеологией. Однако из-за отсутствия туристической инфраструктуры в этот период Советский Союз был вынужден ставить искусственный барьер на пути потока иностранных туристов.

Abstract

The purpose of the research is to reveal the role and importance of cultural tourism in the tourism industry in Uzbekistan during the years of the Soviet Union. The time limit includes the years 1924-1991. The research work was analyzed on the basis of comparative-gradual, periodical methods based on foreign sources and newspapers and magazines published during the years of the Soviet Union. The analysis methods of scientists as V.A. Kvartalniy, G.A. Papirian, B.C. Malshev, R. Yu. Popova, O.P. Berezkin, N.V. Mikhailova, I.I. Ilina are given. The emergence of tourism in Uzbekistan falls directly on 20s of the 20th century in the Soviet Union and served as a tool for the organization of recreation for workers and communist ideology. However, due to the lack of tourism infrastructure during this period, the Soviet Union was forced to put up an artificial barrier to the flow of foreign tourists.

Kalit so'zlar: turizm, kommunistik mafkura, Inturist, proletart turizmi, tashqi turizm, ichki turizm, mehnat rohat turizmi, qaxramonlik yo'llari.

Ключевые слова: туризм, коммунистическая идеология, Интурист, пролетарский туризм, иностранный туризм, внутренний туризм, трудово-развлекательный туризм, дорогигероев.

Key words: tourism, communist ideology, Intourist, proletarian tourism, foreign tourism, domestic tourism, labor-pleasure tourism, heroic roads.

KIRISH

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida turizm jahon iqtisodiyotida muhim o'rinn egalladi. Dunyo aholisi moddiy farovonligi darajasining ortishi dam olish va sayohat qilishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keldi. Natijada, har bir mamlakatda turizm jozibadorligini oshirish orqali sayyoohlар oqimini boshqarish zarurati paydo bo'ldi. Jahonning barcha mintaqalarida, xususan, O'zbekistonda ham turistlarning reklama-axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, mavjud infratuzilmani mukammallashirish, turistlar xavfsizligini ta'minlash strategik maqsadlardan biriga aylandi. Turizm murakkab, ko'p funksional ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish fenomeni sifatida tavsiflanishi mumkin. Turizm "ijtimoiy utopiya" yaratishga qaratilgan

Sovet turmush tarzini targ'ib qiluvchi vosita edi. Sovet Ittifoqida yaratilgan turizm modelining ijtimoiy ongda sotsialistik mafkurani o'rnatish vositasi sifatida foydalanilganligi asoslangan.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sovet Ittifoqida tashqi va ichki turizmning o'ziga xos xususiyatlari hamda turizmdan kommunistik mafkura targ'ibot "quroli" sifatida qaralganligi V.Kvartalnov, R.Abdumalikov, B.Rogatin, M.Pikulin, V.Vitkovich, M.Jo'raev, N.Qalandarov, X.Nurmuhamedov, G.Vasiley, O'. Rustamov, X.3iyaev, I.To'xtasinov, G.Semivol, A.Yo'ldoshevlar tomonidan o'rganilgan. Mavjud manbalar XX asr-20-30-yillarda O'zbekistonidagi turizmning ahvolini yoritishda samarali foydalanildi.

Sovet ittifoqi yillarda turizmga mustaqil tarmoq sifatida qaralmagan bo'lsa-da, kapitalistik mamlakatlarda iste'mol tanlovingin yuqoriligi, sayohatga chiqish imkoniyatining ortib borishi, "amerikacha" turmush-tarzini targ'ib qilishda turizm imkoniyatlaridan keng foydalanilganligi, davlat tomonidan sohaning qo'llab-quvvatlanishi natijasida soha taraqqiy etgan[**1.108 B.**].

Sovet Ittifoqida turizmning rivojlanish jarayonlarining birinchi bosqichi (1920-1939 yil) sohada yangi turistik harakatlarning paydo bo'lishi, tashkiliy jihatdan shakllanishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotni tiklash va madaniy inqilobni rivojlantirish maqsadida mehnatkashlar faolligini oshirish, ularning madaniy qadriyatlarga va tabiatni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qonlirish asosiy vazifa bo'lgan. Ayni shu davrda AQSh turizmdan totalitar tahdidlarga qarshi kurash olib borishda turizm imkoniyatlaridan foydalandi. Yangi model Amerika va uning ittifoqdoshlariga ham xizmat qildi. Yangi model o'zida globallashuv, kosmopolitizm, va paroxializm g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan[**1.92 B.**].

XX asrning 30-yillarda turizm sohasi shakllanish jarayoni boshlanishi bilan bir qatorda byurokratik to'siqlar ham paydo bo'lgan. Proletart turizm jamiyat maxsus shiorlar ham ishlab chiqsa boshladgi. "Mamlakatni yaxshiroq qurish uchun uni yaxshi bilish lozim. Uning uchun sayohat qiling" shiori turizmning asosiy yo'nalishini belgilab berdi. Bu davrda mehnat kuchi kam bo'lgan hududlarga ishchi kuchi sifatida safarbar qilinish ham turizm yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Buni "proletar turizm insonni yangi qirralarini ochadi" deb silliqlandi. "Turizm – bu eng yaxshi ta'til" shiori asosida ta'til va yozgi yig'im terim vaqtida ommaviy safarbarlik "ekskursiyalari" uyuşhtirilgan[**2.21B.**].

O'rta Osiyoda dastlabki professional ekskursiya 1919-yil iyul oyida Qo'qondan Toshkentga yuborilgan. Bu esa ekskursiyachilarни o'lka tabiatini va tarixiga bo'lgan qiziqishini oshishiga olib keldi[**3.**]. Sovet Ittifoqida turizm sohasiga bag'ishlangan birinchi konferensiya 1921-yil 16-21-may kunlari Petrogradda bo'lib o'tdi. Konferensiyaning asosiy vazifasi maktab va maktabdan tashqari turizmni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat bo'lgan. 1923-yil 10-12-mart kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi konferensiya turizmning mohiyati va rivojlanmagan turlar va muammolar borasida nazariy tavsiyalar berilgan.

1920-yillarda Sovet Ittifoqida turizm turlari asosan sport bilan hamohang holda rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratildi hamda turizm ommaviy xarakter kasb etmadidi. Ushbu davrda 43 ta turizm targ'ibotiga bag'ishlangan filmlar ishlab chiqildi. Boshqa sohalarda bo'lgani singari turizm sohasida ham davlat monopoliyasi o'rnatildi. Yana bir alohida hususiyat ishlab chiqarish sohasida o'zaro tajriba almashish turizmning eng asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan[**3.**]. 1924-yil 23-yanvarda O'lka fizkultura jamiyatini vujudga keldi. 1927-yilda birinchi umumo'zbek fizkultura bayrami bo'lib o'tdi. Musobaqada 300 nafar sportchi qatnashgan[**2.26 B.**].

Proletart turizmi va ekskursiya jamiyatni 1927-yilda tashkil etildi. Ushbu jamiyatga 1928-yildan boshlab yosh komsomol va ishchi mehnatkashlar a'zo bo'la boshladgi. Ushbu jamiyat a'zolarining asosiy huquqi sifatida turistik mahsulotlar hamda qurollarni sotib olish, turistik lagerlarga yo'llanmalar olish imkoniyatlari kirgan. Temir yo'llarda 50 foiz chegirma bilan harakatlanish huquqiga ega bo'lgan[**4.**].

1929-yil "Inturist" tashkiloti tashkil etilgach, haqiqiy ma'noda turizm rivojlanish jarayoni boshlandi. Turizmni targ'ib qilish maqsadida radio eshittirishlar hamda gazetalarda maqolalar muntazam berib borilgan. Sovet ittifoqi yillarda O'zbekistonda 1929-yilga kelganda 29 vaucher va marshrutlar ro'yxatga olindi. Asosiy marshrutlar tog' turizmi yo'nalishlardan iborat bo'lgan. Sovet ittifoqining turizmni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad jismoniy sog'lom odamlarning shakllantirish va ishchilarning madaniy darajani ko'tarishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, turizm

TARIX

harbiy vatanparvarlikni rivojlantirishga xizmat qilganligi, hatto ushbu davr shiorlarda ham aks etgan. Jumladan, "Proletar turizm jasur jangchilarni tarbiyalaydi", "Proletar turizm mudofaa manfaatlariga xizmat qiladi" singari g'oyalarni targ'ib qilgan bo'lsa, ikkinchi asosiy qutb AQShda ham turizmga harbiy xizmatchilarning zo'riqishini oldini oluvchi vosita sifatida qaralgan. Bu orqali harbiylarning zerikishini oldi olingen. Sayohatga chiqqan amerikalik harbiylar turli irqchilik va diniy nizolardan uzoq bo'lishi, shuningdek biror ko'ngilsizlik bo'lishidan ehtiyyot bo'lishi lozimligi uqtirilgan[5.].

1929-yil 18-dekabrda partiya "Ishchi va dehqonlarga tibbiy yordam to'g'risida" gi farmon qabul qilindi. Ammo amalda kolxozchilar kamdan-kam hollarda sanatoriy-kurortga borish imkoniyatidan foydalangan. Turizm sohasini targ'ib qilishda turli hujjatlari va badiiy filmlar roli ham katta bo'ldi. Jumladan 1930-yilda olingen "Ta'tilda" filmi misol bo'la oladi[6.].

Butunittifoq proletar turizm va ekskursiyalar jamiyati tashkiliy-ommayviy, turistik-ekskursiya, targ'ibot ishlarini umumiyligi ma'noda tiklashga imkon beradi. XX asrning 30-yillarida ishlab chiqilgan turistik marshrutlarning asosiy qismi 12-14 kundan oshmagani[7.]. Sovet ittifoqi o'z tarixi davomida xalq haqida o'laydigan, ularning farovon hayotini ta'minlaydigan qilib ko'rsatishni ustuvor vazifa qilib belgilagan edi. Turizm ayni shu rejani amalda ko'rsatib berishga xizmat qilgan. 1925-yil 5-iyundagi "Sovet Ittifoqiga kirish va chiqish to'g'risida"gi nizomga binoan xorij mamlakatlariga sayohat qilish qiyinlashdi. 1931-yilda "Sovet ittifoqiga kirish va chiqish to'g'risida yo'riqnomasi"ga yangi norma kiritildi: "Xorijga sayohat qilish uchun ruxsatnomalar shaxsiy sayohat qilish uchun Sovet fuqarolari alohida holatlarda beriladi". Mamlakatdan chiqish faqat diplomatlar va davlat uchun muhim ish safarlarida bo'lgan xodimlar uchun mumkin edi[8.]. AQShning bu davrdagi migratsiya siyosati turizm sohasini to'laqonli rivojlanish imkonini bermadi. Turizm ayrim "imtiyozli" qatlam uchungina xizmat qildi. Mamlakatga xitoyliklar, qora tanlilar hamda ruslarni sayohat qilishiga "cheklov"lar qo'yilgan[9.].

Mehnatkashlarni dam olishini tashkillash maqsadida Namangan shahrida 1884-yilda tashkil etilgan istirohat bog'i 1927-yilda shahar Komsomol yoshlari tomonidan obodonlashtirildi[10.]. Bu yerdagagi chinorlarning aksariyati aynan shu yili Latif va Zarif bog'bonlar tomonidan o'tkazildi va dastlabki qizil choyxona tashkil etildi. Bu yerda 200 xildan ortiq noyob daraxtlar va 10 ming tupdan ortiq atirgullar o'tkazidi[11. 531B.].

O'zbekistonda turizmni to'laqonli rivojlanishiga, eng avvalo, texnik muammolar ta'sir ko'rsatgan. Yo'llarning mavjud emasligi, transportning cheklanganligi, elektrlashtirilmagan hududlar soni ko'pligi, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojning qondirilmaganligi, qurilish sohasidagi muammolar o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Eng asosiy muammolardan yana biri shundan iboratki, ikki haftalik yoki bir oylik sayohat marshrutlari uchun ma'lumotlar yetarli darajada emasligi, turizm yoki sayohat bo'yicha gazeta yoki yo'l ko'rsatkichlar nashr etilmasligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolgan[12. 3 B.]. Bolalar ekskursiya turistik stansiyalari O'zSSRda 1935-yildan tashkil etila boshlangan[2.12.B.]. 1929-yilning iyul oyida mamlakatimizda veloturizm va suv turizmi yo'nalishlari to'liq shakllandi hamda ilk turistik safarlar uyushtirildi[13.444 B.].

1927-yilda O'rta Osiyo bo'yicha bor yo'g'i davlat reestridan o'tgan ikkita turistik marshrut bo'lib, ushbu marshrutning birinchisi O'rta Osiyo paxta dalalari bo'ylab tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchisi O'rta Osipyoni o'rganish marshruti hisoblanadi. Ushbu turistik marshrutlar kichik tarmoqlarga ham bo'lingan bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi. Jumladan, "yetinchi ittifoq Tojikiston bo'ylab sayohat", "Turkmanistonda qurilish" marshruti, "O'rta Osiyo sanoat shaharlari bo'ylab" sayohat marshruti, "O'rta Osiyo paxtazorlari" turistik marshruti, "Farg'ona vodiysi bo'ylab" tur marshrutlari ham ishlab chiqilgan[14.].

1929-yildan yer-suv sohasida amalga oshirilgan islohatlar natijasida kolxozlarning yangicha boshqaruva sifatida xalq farovonligini ta'minlashda tutgan o'rnnini ko'rsatish maqsadida qishloq turizmi doirasida sayyohlik marshrutlariga kiritilgan. Turizmning asosiy maqsadi sotsiolizm targ'iboti bilan bir qatorda piyoda turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratdi. Chunki, piyoda turizm armiya hayotiga tayyorloving muhim elementi bo'lgan[15.]. Yevropa mamlakatlarini inobatga olgan holda agro turizm va industrial turizmni yo'lga qo'ydi. Bu orqali qishloq xo'jaligi hamda sanoatda erishgan yutuqlar namoyish qilingan[16.].

O'zbekiston sanoat sohasidagi yutuqlar bilan tanishtirish maqsadida, asosan, Toshkent shahriga sayohatlar uyushtirilgan. Toshkent shahridan 30 km uzoqlikdagi paxta tozalash zavodi,

yog' zavodi, shakar zavodlariga, Farg'ona oblastidagi Marg'ilon to'qimachilik kombinatiga, ipakchilik sanoat markazlariga, ko'mir sanoati va neft sanoat markazlari bo'lgan Qizil qal'a, Chimyon, Chelak hududlariga, qishloq xo'jalik hududlaridan Dalvarzin va Mirzacho'l hududlariga sayohatlar uyushtirilgan. Sirdaryo temir yo'l stansiyasidan 18 km uzoqligidagi Paxtaorol sovxozi asosiy turistik markaz vazifasini bajargan. Jizzax oblastidagi G'allaorol hududlari ham qiziqarli turistik maskan sifatida e'tirof etilgan[17.]. Sayohatga chiqishda sog'liqni tiklash muhim rol o'ynagan[18.]. Bu davrda asosan erkaklar sayohatga chiqqan bo'lib, turistlar kontingentini uzoq vaqt ushbu ko'rsatkichlari saqlanib qoldi. Sayohatga chiquvchilarning faqatgina 10 foizinigina ayollar tashkil qilgan[19.].

Paxtachilik bilan tanishuv marshruti Toshkent temir yo'l stansiyasidan boshlangan. O'zgan – Bozorqo'rg'on – Chorbog' – Arslonbob, Asaka – Jalolobod, Jalolobod – Quva yo'naliishlari bo'ylab tashkil etilgan. Farg'ona vodiysi paxtachilik markazi bo'lgan. O'zgan shahrida 20 ta paxta tozalash zavodlari sayohat marshrutiga kiritilgan. Marshrutning asosiy markazlaridan biri meneral buloqlarga boy kurort shahar Jalolobod hisoblanadi. Ammo shunisi ajablanarliksi ekskursiya davomida mahalliy aholi bilan tanishish zararli deb qayd etilgan[2.15 B.].

Farg'ona vodiysisida Oloy tog'lari, Shohimardon, Qora qozoq dovonlariga sayohat qilish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Namangan hududida esa Chortoq asosiy turistik maskan sifatida ekskursiya marshrutlari tarkibiga kiritilgan. Pomir tog'lari bo'ylab ham turistik marshrut ishlab chiqiladi. Bu marshrut umumiy uzunligi 450 km ni tashkil etgan. O'sh – Oloy vodiysi – Oltin Mozor – Farg'ona bo'ylab o'tgan. O'sh shahrida yirik ipak fabrikasi, paxta tozalash zavodi hamda gidro elektr stansiyalariga sayohat qilgan. Chetik dovoni orqali Oloy vodiysiga sayohat qilingan. Bu marshrut bo'ylab N.Korolenko 1931-yilda turistik guruh bilan sayohatga chiqqan[2.16 B.].

Qirg'izistonning Qorako'l Norin rayonlari joylashgan Issiqlig'a Toshkent temir yo'lli orqali Avliyoota – Frunze shaharlari bo'ylab tur marshrut ishlab chiqilgan. Frunzega otda, piyoda yoki avtobusda ham borish mumkin bo'lgan[2.17 B.].

Tyanshan tog'i bo'ylab turistik marshrut tog'larning baland muzliklari bilan tanishish asosiy vazifa hisoblanadi. Marshrutning umumiy uzunligi 192 km ni tashkil etadi. Qora ko'l shahridan Semyonov muzligiga qadar 750 km ni tashkil etib marshrut davomiyligi 21 kunni tashkil etadi. Semyonov muzliklarining umumiy uzunligi 30 km ni tashkil etgan. Marshrut Roboch – Semyonov muzligi – Esheter dovoni – Bayon ko'l dovoni – Norin shaharchasi - Qarqara yarmarkasi – Santosh dovoni – Qorako'l – Frunze shahri bo'ylab o'tgan. Frunzedan Rovochgacha bo'lgan masofa 1916-yil ozod etilgan hududlar hisoblanadi. 1929-yil 30-iyunda Ukrainalik alpistlardan iborat turistik guruh Xon tangri tog'iga ekskursiya uyushtirgan[2.21 B.].

1927-yilda Samarqand shahri bo'ylab turistik marshrut ishlab chiqilgan. Bibixonim Jome masjadi, Ulug'bek rasadxonasi, Registon maydoni, Go'ri amir maqbarasi singari joylar bilan bir qatorda Sovet Ittifoqi tomonidan barpo etilgan sanoat korxonalariga sayohatlar tashkil etilgan. Samarqand elektrostansiysi, vino va aroq zavodlari, meva quritish sexlari ko'rsatilgan. Shuningdek, Cho'ponota tepaligi shahar atrofidagi qishloqlarga ham sayohatlar qilingan[2.22 B.]. Buxoro shahri bo'ylab tashkil etilgan tur marshrut davomida tarixiy me'moriy yodgorliklar tomosha qilingan. Buxoro shahriga Sovet Ittifoqi yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston yagona turistik marshrutlar tizimiga kirganligi tufayli temir yo'l tizimi orqali Olmaota va Buxoro turistik marshruti ishlab chiqiladi. Ushbu marshrut jami 11 kunga mo'ljallangan[20.]. 1930-yillarda xatto xorij mamlakatlardan ham turistlar Buxoro shahriga kelib turgan. Jumladan, 1932 yilda Amerikalik kommunist Lui Tompson Peterson Buxoroda bo'lganligini Buxoro o'lkashunoslik kitobida qayd etgan[21.]. Turizm aktiv dam olishning asosiy vositasiga aylana boshladi. Ammo transport infratuzilmasining u darajada rivojlanmagani tabiatning odam oyog'i yetmagan yoki kam o'zlashtirilgan hududlarga sayohat qilish bo'yicha tur marshrutlar infratuzilmasi yo'lga qo'yilmadi. Bu esa o'z navbatida sayyohlarni to'liq o'zlarini erkin his qilish imkonini bermadi. Shahar aholisining o'sishi qishloq hududlarini turizm ob'ekti sifatida qarash imkonini berdi[2.30 B.].

Sovet ittifoqi bo'ylab harakatdagi turistik marshrutlar ro'yxati: Sibir o'lkasi Kuznesskiy ko'mir koni bo'ylab Sibir industriyasi namoyish etilgan. Chenelish – Neva – Sibirskiy – Kuznesskiy – Tomsk yo'naliishi bo'ylab 12 kunlik marshruti davomida Kuznesskiy xavzasi – Oltot turistik marshruti bo'ylab eski Sibir manzaralari namoyish qilingan marshrut davomiyligi 30 kunni tashkil etgan[22.].

TARIX

Inturist XX asrning 30-yillardan turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashga ham alohida ahamiyat qarata boshladi. Jumladan, tarjimonlar uchun 3 yillik kurslar, Moskvadagi Turizm va ekskursiya kolleji va oliy turizm ta'lim tizimiga asos solindi. Moskva universitetlarining Geografiya va Etnografiya fakultetlarida turizm bo'yicha ixtiyoriy darslar joriy qilindi. Leningraddagi Xorijiy turizm institutida gid-tarjimonlar malaka oshirish tizimiga asos solindi. 1938-yilda uzoq yillar davomida Chet el turizmi instituti yopilgandan so'ng, Butunittoq kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi turizm va ekskursiyalar bo'yicha Markaziy Kengash kurslari turizm sohasida ishchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda assosiy bo'g'in bo'lib qoldi[23].

1930-yildan aholini turistik sayohatlarga jalb qilish, oromgohlar va turistik marshrutlar tarmog'ini rivojlantirishga alohida ahamiyat qarata boshladi. Iqtisodiy boshqaruving markazlashtirilishi turizm infratu zilmasini rivojlantirishga katta mablag' ajratish imkonini berdi. Sovet ittifoqida turizm sohasida xususiy tadbirdorlik bilan shug'ullanish jinoyat darajasiga ko'tarildi[24.]. Pasport tizimi to'g'risidagi Nizom 1933-yil 28-aprel qarori asosida amalga oshirila boshlandi. Pasport tizimining joriy etish orqali fuqarolarning doimiy axloqiy jihatdan nazorat qilish imkonini bergen[25.].

1936-yildan SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining farmoni bilan turizm sohasidagi ishlarga rahbarlik qilish Butunittoq kasaba uyushmalari Markaziy Kengashiga topshirildi. Natijada ichki turizm sohasida yangi davr boshlandi. Turizm xarbiy vatanparvarlikni rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Spelioturizm va tog' turizmi rivojlanish Sovet Ittifoqida asosan harbiylar orasida "fuqarolik urishi" bo'lgan hududlarga amalga oshirilgan sayohatlar natijasida keng avj oldi. Turizm xalqaro munosabatlarga juda "sezgirligi" natijasida davlatlar o'rtafiga barometrga aylandi. Dunyodagi birinchi sotsiolistik mamlakatni ko'rishga bo'lgan qiziqish xorij mamlakatlarida ayniqsa kapitalistik mamlakatlarda kuchli bo'lgan. Biroq xalqaro vaziyat turizmnинг rivojlanishiga to'laqoni imkoniyat bermagan. 1936-yildan ichki turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratildi. Turizmnинг rivojlanishi kapitalistik mamlakatlarda tovarlarning ko'pligi, odamlarning xulq-atvori ko'proq taasurot uyg'otgan bo'lsa, sotsiolistik mamlakatda ijtimoiy tenglik nazariyasi va "umumfarovonlik" g'oyalari o'rtafiga murosasiz "axborot" xurujlari aynan turizm orqali keng yoyilgan. Dam olishga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida 1936-yilda Toshkent shahrining Beshyog'och dahasida Komsomol ko'li barpo etildi. Bu o'z navbatida, turizm rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1936-yilda Chirchiq shahrida ilk turistik seksiya tashkil etildi. Aynan shu yili Chirchiqlik turistlar balandligi 2500 metrdan 4000 metr balandgacha bo'lgan 22 dovonni zabt etdi. Sayyoohlari 1300 km masofani 34 kun ichida bosib o'tdi. Shuningdek, Burchmulla – Olmaota turistik marshruti eng qiziqarli tur marshrut bo'lganligini qayd etgan.

1929-1937-yillar Inturist faoliyatida o'sish davri bo'ldi. Tashqi turizm rivojlandi. Xorij mamlakatlaridan 70 ming sayyoohlari aynan shu davrda mamlakatga kelgan bo'lsa, shundan uchdan biri AQSh fuqarolari bo'lgan. 1938-yildan jahon mamlakatlaridagi iqtisodiy inqiroz va jahon urishining boshlanish xavfi turistlar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Birinchi dam olish uyi 1934-yilda Toshkent shahri Yalong'och mavzesida tashkilotlarning ilg'or ishchi va xizmatchilarining dam olishini tashkil qilish maqsadida barpo etilgan. Dam olish uylarida kasaba uyushmalari hisobidan yo'llanmalar asosida yuborilgan[26.183 B.].

1937-yilda Sovet Ittifoqida birinchi muzqaymoq zavodi ishga tushirildi. Aynan shu voqeа keyinchalik mamlakat bo'ylab kafe va barlarning paydo bo'lishiga hamda sovet madaniyatining ajralmas qismiga aylanishiga olib keldi. Urushdan so'ng kafelar tizimida o'zgarish paydo bo'ldi. Ya'ni interer, musiqa va jaz alohida shukuh bera boshladi[27.].

Turizmnинг yanada rivojlanishiga 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va ikkinchi jahon urushi boshlanishi to'sqinlik qildi. Birinchi jahon urushidan keyin turizm nisbatan tez tiklandi. Natijada xalqlar o'rtafiga tinchlik va o'zaro tushunish ortdi. Turizmni rivojlantirishning ikkinchi muhim omili urush davri talablari bilan tezlashtirilgan texnik takomillashtirish edi. Shunday qilib, avtoulovlar va avtobuslar samaradorligi oshdi. Turopertorlar sayyoohlari ehtiyojlari uchun qulayroq va arzonroq transport vositalarini taqdim etish imkoniyati paydo bo'ldi. Aviatsiya yetkazib berishning amaliy vositasiga aylandi. Bu dunyoning barcha mamlakatlarida turizmnинг rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan mobililik va aloqa davri boshlandi. Bu davrda turizm sohasida asosan sport va mudofaa sohasiga yo'naltirilganligi tufayli topografik va turistik

xaritalarning yetishmasligi asosiy muammolardan biri bo'ldi. Shuningdek, sayyoohlarni joylashtirish borasida ham katta muammolarga duch kelindi. Mayjud moslashtirilgan mehmonxonalar talab darajasida emas edi. Asosan, mahalliy aholining turar joylaridan foydalaniłgan. Bir kunlik sayohat davomiyligi bo'yicha ham aniq normalar qabul qilinmaganligi tufayli 8-12 soatlab davom etar edi. Oziq-ovqat xavfsizligi ham eng asosiy muammolardan biri bo'lib, boshqa hududlardan tashrif buyurgan turistlarning iqlim xususiyati inobatga olinmadı. Tog' va ov turizmi keng yoyildi. Ammo eng katta muammo turli zaharli xashorot va sudralib yuruvchilardan himoya tizimi va birinchi tez tibbiy yordam beruvchi dori-darmonlar yetishmasligi ko'zga tashlandi[28].

Yosh sayyoohlар va o'lkashunoslar markazi O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlarga to'garak, klub, sayyoohlilik guruhlari orqali qo'shimcha ta'lim-tarbiya beruvchi bolalar muasasasi bo'lgan. O'quvchi yoshlarning qiziqishlari, intilishlari, iqtidorlariga mos to'garak ishlariga jalb etilgan. Ularning bo'sh vaqtini mazmunli va foydali o'tkazishni uyuştirgan. Markaz ekskursiya, sayohat, safar, ekspeditsiya, sayyoohlilik yurishlarini uyuştirib, ular orqali o'quvchi yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi hamda mustahkamlaydi. O'zbekistonda Bolalar sayyoohlilik bazasi ilk bor 1936-yilda tashkil etilgan[29.568 B.]. Sovet hokimiyati yillarda mакtab va maktabdan tashqari muasasalarda, kattalar o'ttasida madanly-oqartuv ishlarida ekskursiyalarning o'rni va ahamiyati katta bo'ldi. 20-yillarning oxiri 30- yillar boshlarda ekskursiyalar turizmning tarkibiy qismiga aylandi. 1936- yilda SSSR MIK turizm va ekskursiyaga rahbarlik qilishni VSSPS va uning tashkilotlariga yukladi[30.162 B.].

Samarqandga dastlab kelgan chet el yozuvchilaridan biri chex yozuvchisi Yulius Fuchik edi. U "Rude pravo" gazetasining Moskva muxbiri sifatida 1936-yilda kelib ketgandi. Yulius Fuchik Samarqandda bor-yo'g'i uch kun turdi. Shu muddat ichida respublika kasalxonasida, "Hujum" ipak fabrikasida, teri zavodida, shaharga yaqin kolxoza bo'ldi. Maktablarni, ishchilar shaharchasini borib ko'rdi, eski shahar maydonlarida va ko'chalarida sayr qildi. Yulius Fuchik Samarqand haqida yozgan ocherklaridan birini Moskvada o'qib taxsil ko'rgan birinchi o'zbek ayol doktori Roziyaxon Mirsoatovalga bag'ishlagan edi. Yu. Fuchik O'rta Osiyo xalqlarining sotsialistik madaniyati sohasida erishgan yutuqlari bilan faxrlanib: "Xozirgi kunda Samarqand birinchi darajali kasalxonasi bilan shuhrat qozongani singari, Buxoro ham endi o'z masjidlari bilan emas, balki yaxshi- yaxshi mакtablari bilan nom chiqgargan",— deb yozgandi[31.].

Sovet ittifoqi xalqlari o'ttasida do'stlik tarixi to'g'risida ko'plab asarlar yaratilgan. Belorus va o'zbek xalqlari o'ttasidagi do'stlik aloqalari ham uzoq tarixga borib taqaladi. Belorus olimi M. Iosko mana shu ikki xalqning do'stlik aloqalarini tarixiga oid kitobini Belorus davlat universiteti nashriyotida nashr ettirdi. Mixail Iosko o'z asarini "Belorusiya va O'zbekiston (belorus va o'zbek millatlararo aloqalar taraqqiyoti tarixidan) deb nomlagan. M. Iosko o'z asarini sobiq belorus partizani o'zbek xalqi farzandi Luqmon O'roqovga bag'ishlagan. Asarning "Yagona oilada" bo'limida asosan ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrdagi o'zbek belorus aloqalari alohida o'rganilgan. 1932-yilda Belorus shoirlari P.Glebka, M.Xvedarovich, I.Barashka O'zbekistonga kelib Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Qo'qon shaharlarida bo'lgan. O'zbekistonga qilgan sayohat natijasida M. Xvedarovich "O'zbekistonga" she'rini yozgan. 1935 yilda Belorusiyada chiqadigan "Polimya" jurnali o'z o'quvchilarini A. Ruseskiyning Farg'ona vodiysiga qilgan sayohatidan so'ng yozilgan[32.].

1935-yilda paragvaylik Elvio Romero Samarqand shahriga qilgan sayohati davomida Sovet tarixini puxta biladigan mahalliy o'quvchilar hamda Samarqand ko'chalarida chopon kiygan sallali mo'ysafidlarning gazeta o'qiyotganliklari hayratlantirgan[33.].

Sovet Ittifoqida XX asrning 30-yillarda og'ir iqtisodiy vaziyat hamda doimiy moliyalashtirilmasligi oqibatida mehmonxonalar soni qisqarib ketdi. Bu davrda xonalar to'shak, stol, stul shkafdan iborat bo'lib, mebellar sifatsiz bo'lgan. Xonalar sanitariya talablariga javob bermagan. RSFSR Xalq Komissarları Kengashining "Mehmonxona sanoatini soddallashtirish va mehmonxonalardagi xonalar va yotoqlar uchun tariflarni belgilash to'g'risida"gi 1934- yil 27-27 iyuldagı 687-sonli Qarori bilan mehmonxonalarda yangi standartlar o'rnatilgan. Restoran-ovqat xonasi, bufet, sartaroshxona, elektr signalizatsiyasi, jamg'arma cassasi, radio, markaziy isitish, kanalizatsiya, issiq suv ta'minoti, shaxsiy va jamoat foydalaniş uchun hammom va dush xonalari, jamoat telefonи mavjudligi; xonalarni yuqori sifatli ko'rpa-to'shak bilan ta'minlash; mehmonxonalardagi xonalar va zallar me'moriy va badiiy bezatilgan bo'lishi; tashrif

TARIX

buyuruvchilarga kiyim-kechak va poyafzallarni, kirlarni tozalash xizmatining mavjudligi; mehmonxonalarda kutubxona-o'qish zallari, bilyard xonalari, kitob-gazeta do'konlari bo'lishi belgilandi[34.]. 1939-yilda sayyoohlarni joylashtirish bilan bog'liq muammolar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sayyoohlarning 3/1 qismi turli chodirlarda joylashtirilgan bo'lsa, 3/2 qismi kapital ta'mirlash ishlari olib borilgan moslashtirilgan binolarga joylashtirilgan[35.].

Kattaqo'rg'ondag'i Pirmatovlar uyi, Qo'qon shahridagi Sadixon uyi, Namangandagi Muhammad Siddiq uyi[36.37 B.] singari mahalliy aholiga tegishli uylardan mehmonxona sifatida foydalanish yo'lga qo'yildi.

1939-yidan Inturist SSSR Tashqi savdo xalq komissarligi yurisdiksiyasiga o'tkazildi. Xorijliklarni mehmonxonalarda qabul qilish bo'yicha hujjatlashtirish soddalashtirildi. 1939 yilgacha Inturist asosan milliy hunarmandchilik targ'ibotchisidan yuksak iqtisodiy tashkilotga aylandi. 1939 yilda Inturist jami 14 davlatda o'z vakolatxonalariga ega bo'lgan. Chunki urush turizm sohasini ham og'ir ahvolga solib qo'ygan edi[37.].

Afg'oniston Respublikasi bilan Sovet Ittifoqi do'stligi natijasida 1926-1939-yillarda "Toshkent – Qobul shaharlari o'ttasida muntazam aviaqatnovni yo'lga qo'yish to'g'risidagi bitim" imzolanishi o'zaro do'stlik aloqlarini mustahkamlashda hamda turistik almashuv uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi[38.55 B.].

XULOSA

Xulosa o'rniда shuni alohida qayd etish lozimki, turizmning rejalashtirish bosqichida Sovet Ittifoqi yillarida sport va harbiy vatanparvarlik turlari orqali rivolantirilgan. Pasport tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida turizm cheklangan darajada amalga oshirilishiga olib keldi. Shuningdek, turizmni rejalashtirish bosqichida AQSh va Yevropa mamlakatlardan O'zbekistonga sayyoohlar oqimi nisbatan yuqori bo'lganligi tasdig'iini topdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Travel America Year," A proclamation by the President of the United States of America, No. 2383. F.R. Doc. 92,108.
2. G.Vasiljev. Proletar tyrizmi ybyn O'rta Asja bojuncu saqlam ekskyrije ybyn. - T.: O'z. dövlet nəşrjat, 1932 y. B. 21,26,11,12,13,14, 15,16,17,22, 30. (2. G. Vasiljev. Proletarian tourism has been preserved throughout Middle Asia. - T.: Myself. State publishing house, 1932. V. 21,26,11,12,13,14, 15,16,17,22, 30.)
3. A.Milirud. "O'zbekistonda turizm tarixi" "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetası: 1980 y. 19 mart, № 32 (4045) (A.Milirud. "History of Tourism in Uzbekistan" newspaper "Uzbekiston Fizkulturachisi": 1980. March 19, No. 32 (4045))
4. http://www.dslib.net/istoria-otechestva/turizm-v-sssr-v-konce-1920-h-nachale-1930-h-godov_organizacione-i.html
5. I.Alimov "O'zbekistonda fizkultura va sport tarixidan" "Toshkent haqiqati" O'zbekiston KP Toshkent oblast va shahar Komitetlari, mehnatkashlar deputatlari oblast va shahar Sovetlarining organi gazetası: 1961 y. 11 avgust, № 158 (1936) (I.Alimov "From the history of physical culture and sports in Uzbekistan" "Tashkent truth" newspaper of the organ of the Tashkent regional and city committees of the Communist Party of Uzbekistan, regional and city Soviets of working people's deputies: 1961. August 11, No. 158 (1936))
6. <https://knife.media/soviet-vacation/>
7. <http://lib.sportedu.ru/press/tpfk/2003N5/p47-49.htm>
8. <https://varlamov.ru/3327216.html>
9. <https://www.researchgate.net/publication/334432190Tourism>
10. X.Nurmatov "Hammaning istirohatgohi" "Namangan haqiqati" gazetası: 1974 y., 27 avgust, № 163 (11591) (Kh.Nurmatov "Everybody's Rest" Newspaper "Namangan Haqiqiti": August 27, 1974, No. 163 (11591))
11. O'zbek Sovet ensiklopediyasi, 2 son, T.: 1972 y. 531 B. (11. Uzbek Soviet encyclopedia, 2 issues, T.: 1972. 531 B.)
12. Э.Кодыш "Пешоходный туризм", М.: "Физкультура и туризм", 1990 г. (170 с) С.3. (12. E.Kodysh "Pedestrian tourism", M.: "Physical culture and tourism", 1990 (170 p.) P.3.)
13. А.Алексеев. Спортивный туризм в СССР и России (к истории развития). М.: 2015. 444 с. (A.Alekseev. Sports tourism in the USSR and Russia (on the history of development). M.: 2015. 444 p.)
14. Рецензенты: Начальник Управления Российской Республиканского Совета по туризму и экскурсиям (до 1989 г.) (Reviewers: Head of the Department of the Russian Republican Council for Tourism and Excursions (until 1989))
15. "Travel America Year," A proclamation by the President of the United States of America 20
16. The Annals of Iowa Volume 48 Number 7
17. The Annals of Iowa Volume 48 Number 10
18. A.Fozilov "Buxoroning chegarasi qayrda" "Lenin yo'lli" O'zbekiston KP Samarqand oblast Komiteti va mehnatkashlar deputatlari oblast Sovetining organi gazetası: 1975 y., 1 fevral, № 23 (13.338) (18. A. Fazilov "Where is the border of Bukhara" "Lenin's road" newspaper of the organ of the Samarkand Regional Committee of the CP of Uzbekistan and the Regional Soviet of Workers' Deputies: February 1, 1975, No. 23 (13.338))

19. <https://ir.uiowa.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=9188&context=annals-of-iowa> 344
20. Ye.Fobin "Sovet Turkistonida birinchi bor" "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetası: 1974 y., 26 iyun № 73 (3165)(Ye.Fobin "For the first time in Soviet Turkestan" Newspaper "Uzbekiston Physkulturachisi": June 26, 1974 No. 73 (3165))
21. <https://profile.ru/society/vyselit-iz-vsex-dach-burzhuaziyu-istoriya-vnutrennego-turizma-posle-revoljucii-409154/>
22. Э.Maxmudov "Pasport rejimi" "Sovet O'zbekistoni" gazetasi: 1973 y., 4 sentabr, № 206 (15.306) (22. E.Makhmudov "Passport Regime" "Soviet Uzbekistan" newspaper: September 4, 1973, No. 206 (15.306))
23. https://tourlib.net/statti_tourism/vasiljev.htm
24. G'.Ishoqov "Komsomol ko'li" "Sovet O'zbekistoni" gazetasi: 1983 y., 5 may, № 5 (110) (24. G. Ishakov "Komsomol Lake" "Soviet Uzbekistan" newspaper: May 5, 1983, No. 5 (110))
25. I.Popov "Ilk qaldirg'och" "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetası: 1980 y., 14 may № 55(4066)(25. I. Popov "Ilk kaldirgoch" "Uzbekiston fizkulturachisi" newspaper: May 14, 1980 No. 55(4066))
26. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002 y. № 3. 183 Б. (26. "National Encyclopedia of Uzbekistan" T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2002. No. 3. 183 B)
27. https://tvzvezda.ru/news/qhistory/content/20191271040ajQwa.html?utm_source=tvzvezda&utm_medium=longpage&utm_campaign
28. Г.Папиран Международные экономические отношения. Экономика туризма.М.: Финансы и статистика, 2000 г. (G.Papiryan International economic relations. Economics of tourism. M.: Finance and statistics, 2000)
29. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002 y., № 3, 568 B. ("National Encyclopedia of Uzbekistan" T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2002, No. 3, 568 B.)
30. O'zbek Sovet ensiklopediyasi, № 13, T.: 1979 y. 162 B. (Uzbek Soviet Encyclopedia, No. 13, Volume: 1979. 162 B.)
31. I.Popov "Ilk qaldirg'och" "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetası: 1980 y., 14 may № 55(4066)(I.Popov "Ilk kaldirgoch" "Uzbekiston fizkulturachisi" newspaper: May 14, 1980 No. 55(4066))
32. X.Ismatullaev "Belorusiya va O'zbekiston" "Toshkent oqshomi" Toshkent shahar Komiteti va Toshkent shahar Sovetining organi gazetası: 1970 y. 19dekabr, № 297(1365)(Kh. Ismatullaev "Belarus and Uzbekistan" "Tashkent evening" Tashkent City Committee and Tashkent City Soviet organ newspaper: 1970. December 19, No. 297(1365))
33. O'z.Tag. "Chet elliklar qoy." "Toshkent oqshomi" Toshkent shahar Komiteti va Toshkent shahar Sovetining organi gazetası: 1970 й. 24 октябрь, № 252 (6121)(Own Tag. "Foreigners leave." "Tashkent Evening" newspaper of the Tashkent City Committee and Tashkent City Council: 1970. October 24, No. 252 (6121))
34. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Сибирская государственная геодезическая академия" Новосибирск 2017. (Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Professional Education "Siberian State Geodetic Academy", Novosibirsk 2017.)
35. Л.Клетнова Формирование материально технической базы рекреационно туристского хозяйственного комплекса в СССР и России Москва 2018. (L. Kletnova Formation of the material and technical base of the recreational tourist economic complex in the USSR and Russia Moscow 2018.)
36. Д.Nazilov "Xalq me'morchiligi" T.: O'zbekiston SSR "Fan", 1982 y. 37 B.(D.Nazilov "People's architecture" T.: Uzbekistan SSR "Science", 1982. 37 B.)
37. https://studref.com/320862/turizm/mezhdunarodnyy_turizm_sssr
38. M.Pikulin "Afg'oniston" O'zSSR T.:, 1959 y. (64 b.) 55 B.(M.Pikulin "Afghanistan" UzSSR T.:, 1959. (64 p.) 55 B.)